



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 594 sahifa,
5-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari	10
<i>Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayyora</i>	
Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari.....	14
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni	18
<i>Abdullayeva Arofatxon Abdavaxobovna, Mirzahamdov Shahriyor Botir o'g'li</i>	
O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari	22
<i>Abduraximov Ziyodullo Xojiakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li</i>	
Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi.....	28
<i>Allamova Shoxista Shavkat qizi</i>	
Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar).....	33
<i>Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish	37
<i>Axmedova Muxabbat Axmedovna</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funktsiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremlar va ularning isbotlari	42
<i>Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	46
<i>D. M. Xolnazarova</i>	
Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida	49
<i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>	
Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli	55
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating.....	58
<i>Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna</i>	
Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo.....	64
<i>Kobilov Sobir Donakulovich</i>	
Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari.....	69
<i>Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li</i>	
3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari	75
<i>Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli	80
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi.....	84
<i>Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari	88
<i>Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi	94
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zariyeva Xolida Baxtiyor qizi</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari.....	100
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</i>	
O'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-pedagogik mazmuni	103
<i>Sobirova Marjona Shavkat qizi</i>	
Taekvondochilarning musobaqa davrida hujumkorlik jihatlarini oshirish	110
<i>Abdufattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li</i>	



Gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	114
<i>Shokirova Hilola Abduraxmon qizi</i>	
Ingliz tilida tinglab tushunish malakasini rivojlantirishda raqamli ta'limning samaradorligi	120
<i>Aytimbetova U. T.</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ...	124
<i>Axmedova Nazokat Erkinovna</i>	
"Inklyuziv ta'lim. gospital pedagogika" fanida dasturiy-metodik ta'minotning mazmuniy-texnologik va monitoring-dagnostik komponentlari.....	128
<i>Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich</i>	
Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda 5–6-sinf o'quvchilari uchun samarali usullar	132
<i>Rajabova Zarafshon Davronovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslari	135
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish mazmuni.....	140
<i>Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi</i>	
Образность современной медицинской терминологии	144
<i>Дулдулова Наргиза Ашимовна, Мирзаахмедова Нигора Ашимовна</i>	
Развитие исследовательской компетентности младших школьников посредством межпредметной проектной деятельности.....	148
<i>Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Нормаматова Розия Уктам кизи</i>	
Психолого-педагогические риски цифровой образовательной среды	153
<i>Рузметова Хилола Абдушариповна, Моминова Мадина Шукурулла кизи</i>	
"TALIA": система контент-генерации на основе ИИ для подготовки учителей	157
<i>Хасанов Зафар Шавкат угли</i>	
Artificial Intelligence in Foreign Language Education: Enhancing Critical Thinking and Academic Communication Skills	164
<i>Allamuratov Gofur Ashurovich</i>	
Talabalarning bolalardagi ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish.....	169
<i>Inomova Mahliyo Yusuf qizi</i>	
Jamoaviy va yakkakurashchi professional sportchilar motivatsiyasining ijtimoiy-psixologik farqlari	172
<i>Qaimova Gulmira Uchqun qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvini loyiha asosida joriy etishning pedagogik strategiyalari.....	176
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna, Abdullayeva Sarviniso</i>	
Katta guruh tarbiyalanuvchilarida steam kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik va yoshga oid psixologik xususiyatlari.....	179
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna, Rakhimova Laylo Hamidjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari.....	183
<i>Yakubova Zilola Zikirovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining divergent fikrlashlarini rivojlantirish	187
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Akbarova Sarvinoz Sadriddinovna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy tafakkur fenomenini rivojlantirish.....	191
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Pedagogical Conditions for Developing Professional Motivation of Economics Students Through Gamification in English Language Classes.....	196
<i>Bobokeldieva Maftuna Abdusamad qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilish faoliyatlarini shakllantirish asoslari	203
<i>Urunov Abduxalil Madjidovich</i>	
STEAM yondashuvi vositasida fizika fanida o'quvchilarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	208
<i>Jo'rayev H. O., Avezov I. Yo., Sharipov S. B.</i>	
STEAM ta'limi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish	214
<i>Cho'ponova Sharifa Bozor qizi, Achilov Obid Muzrobovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konstruksiyalash va modellashtirish kompetensiyalarini rivojlantirish.....	219
<i>Haydarov Mirjalol Shog'dorovich</i>	



Raqamli egizak texnologiyasi asosida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	336
<i>Sorimsokov Uchqun Soatboy o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga integrativ mashqlar orqali ta'lim berishning ahamiyati.....	340
<i>Zokirov Javohir G'aybullo o'g'li</i>	
Voleybol sport turini o'rgatish va uning mohiyati	345
<i>Eshbayev Ximmat Ablakul o'g'li</i>	
Qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirishning psixologik mexanizmlari	348
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi va qadriyatlar integratsiyalashuvining o'ziga xosligi	352
<i>A. Bozorov</i>	
Nutqiy etiket madaniyatning bosh bo'g'ini sifatida	357
<i>Abdurahmonova Kamola Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida ingliz tilida kasbiy yo'naltirilgan leksik kompetensiyani rivojlantirishga qo'yilgan zamonaviy talablar	362
<i>Axmatqulova Maxfuza Shuhrat qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarning rivojlanishida muhim omil sifatida	370
<i>M. Xo'jamberdiyeva, Abduvohidova Shaxnoza</i>	
Jismoniy mashqlar orqali stress va emotsional zo'riqishlarni kamaytirish imkoniyatlari.....	373
<i>Baxodirova Gulyora Nuriddin qizi</i>	
Kasbiy ta'limning raqamli transformatsiyasi va o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari	378
<i>Biysenov Temirbek</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanishning didaktik asoslari	382
<i>Bo'libekova Maftuna Shermuxammadovna</i>	
"Tarbiya" darslarini tashkil etish texnologiyalari	388
<i>Boltayeva Marjona Oybek qizi, Samadova Mahbuba Nutfullo qizi</i>	
Challenges in Translating Behavioral Verbs: A Lexicographic Perspective from English and Uzbek.....	392
<i>Elchayev Zokhidjon Akhmatovich</i>	
Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llashning istiqbolli yo'nalishlari	396
<i>Ernazarov Zohid Nazarovich</i>	
Tejamkor ta'lim muhitida kaizen texnologiyasi vositasida bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	400
<i>Eshonkulova Shaxnoza Bayturayevna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida tabiiy fanlarga doir bilimlarni shakllantirish	403
<i>Nuriddinova Maysara Ikromovna, Eshonqulova Uralbuvish Fayzullayevna</i>	
Raqamli transformatsiya jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik mahoratni rivojlantirish	406
<i>G. X. Narzullayeva, F. M. Miraximova</i>	
Ekologik omillarning yosh sprinterlarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishdagi va musobaqa faoliyatidagi o'rni (Orol bo'yi mintaqasi misolida).....	411
<i>Genjemuratova Guljaxon Berdimbetovna</i>	
Emotsional intellekt konsepsiyasining rivojlanish bosqichlari	416
<i>Giyasova Nozimaxon Qahramon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish	419
<i>Imamova Nilufar Zabiyyulla qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi-pedagoglarni tayyorlashda dual yondashuv	422
<i>Israilova Xusnida Adilovna</i>	
Legaltech va Lawtech: global istiqbollar, muammolar va imkoniyatlar	427
<i>Kalandarova Gavhar Sulaymanovna, Nematov Dilshodbek</i>	
Kasbiy faoliyatda muloqot madaniyati va nutq mahoratini rivojlantirishning metodologik jihatlari.....	432
<i>Kalandarova Gavhar Sulaymanovna, Raxmatullayeva Shaxnoza</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalarini ingliz tilida shakllantirishda o'qitish metodlarining ahamiyati	435
<i>Kamalova Saida Maxamat Ibraximovna</i>	

Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ yondashuvning pedagogik imkoniyatlari	439
<i>Kambarova Dilfuza Salijanovna</i>	
Maktabdan tashqari ta'lim tizimida o'qituvchilarning motivatsiyasini oshirishda psixologik qo'llab-quvvatlashning o'rni	443
<i>Karimova Nigora</i>	
Bo'lajak pedagoglarning intellektual-artistik mahoratini rivojlantirishda mikromodulli mobil ta'lim (M-Learning) texnologiyasining loyihasi	447
<i>Karribojeva Lobarxon Fayzulla qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformasi yordamida texnologiya darslarida o'quvchilarning kreativligini rivojlantirish.....	452
<i>Raxmatov A'zam Ashur o'g'li, Kenjayeva Marjona Komil qizi</i>	
CEFR standartlari asosida ielts imtihoniga tayyorlash metodikasi	457
<i>Mavlyanova Nilufar Suvankulovna, Ahadova Go'zal Ismatullojevna</i>	
Project-Based Learning in Professional Education	461
<i>Mukhtarova Nozima Kuchkarovna</i>	
Kreativ kompetensiya- zamonaviy o'qituvchi muhim kasbiy sifatining ustuvor omili	464
<i>Nazarova Madinabonu Narzi qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda psixologik xizmatning o'rni.....	468
<i>Nosirova Muhabbat Pirmurod qizi, Jabborova Malohat Azimovna</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarida o'ziga ishonchni oshirishda psixologik treninglarning ahamiyati.....	472
<i>Nozimbojeva Muqaddas Abdulvohid qizi</i>	
Brayl sistemasidagi boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda interfaol uslublardan foydalanish.....	477
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Jo'raqulova Sharofat Baxtiyorovna</i>	
Abdulla avloniy ijodida gender madaniyati va ijtimoiy mas'uliyat g'oyalarning pedagogik tahlili	480
<i>Nurimbetova Shaxnoza Gayrat qizi</i>	
Analitik kimyo fanidan mass-spektrometriya mavzusini muammoli ta'lim metodi asosida o'qitish samaradorligini oshirish.....	485
<i>Nurjanova Fazila Farxadovna, Qo'chqarova Nargiza Otabekovna</i>	
Talabalarda oilaviy budjetni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirishda loyiha ta'limining o'rni.....	489
<i>Nurmatova Maftuna Ilxamovna</i>	
Tyutorlarning innovatsion faoliyatini tashkil etishda sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati.....	493
<i>O'rinova Nilufar Muhammadovna, Muxammadjonova Madinabonu Isroiljon qizi</i>	
Ona tili darslarida o'quvchilarda sintaktik tushunchalarni shakllantirish usullari.....	498
<i>O'rozbojeva Dilnoza Alimboy qizi</i>	
Xulq-atvor fe'llarining ma'nosini yoritishda misollarning funksional roli	501
<i>Ochilova Sanobar Narzullayevna</i>	
Pedagogik ta'lim jarayonida umummadaniy kompetentlikning mazmuni va tarkibiy komponentlari	504
<i>Olimova Dilrabo Nurali qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fan orqali ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik-psixologik bosqichlari.....	508
<i>Orifjonova Iroda Orifjon qizi, Qutlimuratova Barchinoy Xolmurot qizi, Sirojeva Jasmina Rustamovna</i>	
Pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni badiiy meros asosida ma'naviy-estetik rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	512
<i>Otaboboyeva Umida Ilxomovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik rivojlanishida mental yondashuv metodikasining ahamiyati	517
<i>Parpijeva Mohinur Baxtiyor qizi</i>	
Yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda madaniy merosning ahamiyati.....	520
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning samarali usullari	523
<i>Rahmonova Mavluda Suvon qizi, Sanginova Sevinch Bunyod qizi</i>	
Pedagogik sinflarni tashkil etish tamoyillari va asoslari.....	527
<i>Sadullojeva Farog'at Hikmatillo qizi</i>	



Yillik mashg'ulot jarayonida o'rta masofa yuguruvchilarining tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirish metodikasi	530
Saotov Farhod Alisher o'g'li	
Bugungi kunda talabalarni mutaxassis sifatida shakllantirishda maqsadga muvofiqlik, natijadorlik, optimallik va ijodkorlik mezonlari (pedagogika ta'lim yo'nalishi misolida).....	535
Satimboyeva Xurshidaxon Anvarjon qizi	
O'quvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirish metodlari	539
Sharipova Marjona Rashidovna	
Zamonaviy yoshlar orasida prokrastinatsiya muammosi.....	543
Tillayeva Nodira Iskandar qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik madaniyatini shakllantirish	546
Umarova Gulshod Abduljabbarovna	
Yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasi shakllanishining psixologik omillari	552
Xolmirzayev Zafar Mirzaminovich	
Karate sport turining madaniyati.....	556
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Isayev Saidasliddinxon Islom o'g'li	
Ko'ngillilik faoliyatining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.....	560
Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi	
Talaba-yoshlarni milliy kurash mashg'ulotlariga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	563
Zaynobidinov Dilshodbek Qobilovich	
Raqamli ta'lim muhitida o'smirlarning o'zini anglash jarayoni va uning shaxsiy rivojlanishga ta'siri.....	567
Zufarova Yulduzxon Muxiddin qizi	
Интерпретация биологических терминов на русском языке	570
Абдуллаева Нигора Курбановна	
Жанровые особенности рассказа-антиутопии В. С. Маканина "Однодневная война".....	574
Дмитрий Валерьевич Пупонин	
Мифопоэтика и аксиологические функции архетипа матери-хранительницы в повестях В. Г. Распутина "Последний срок" и "Прощание с матёрой"	578
Коржова Шахло Одилжоновна	
Методологические аспекты изучения адаптаций Песчанковых (Gerbillidae) к аридным условиям: анализ классических и современных исследований	585
Нурова Хикоят Кенжаевна	
К вопросу о руководстве самостоятельной работой студентов при изучении иностранных языков	590
Рахимова Мухайё Акмаловна	



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA BILISH FAOLIYATLARINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

Urunov Abduxalil Madjidovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv fanlariga nisbatan barqaror qiziqishni shakllantirish hamda ularning bilish faoliyatini samarali rivojlantirishning psixologik-pedagogik omillari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, ularda diqqat, idrok, tasavvur hamda mantiqiy fikrlash jarayonlarini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining innovatsion yondashuvi, o'quv jarayonini boshqarish mahorati va o'quvchilarda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'zni tahlil qilingan. Maqolada o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan pedagogik talablar hamda ta'lim samaradorligini oshirishda kuzatish va tahlil usullaridan foydalanish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim-tarbiya tizimi, bilish faoliyati, diqqat, idrok, tasavvur, fikrlash, kuzatish va tahlil, boshqarish nazariyasi, o'quv motivatsiyasi, pedagogik faoliyat.

Abstract: This article analyzes the psychological and pedagogical factors that contribute to fostering a sustained interest in academic subjects and effectively developing the cognitive activity of primary school students. The study highlights the age-related and individual characteristics of learners, as well as the specific features of developing attention, perception, imagination, and logical thinking from a scientific perspective. Furthermore, the article examines the teacher's innovative approach in the modern educational system, their ability to manage the learning process, and their role in promoting students' independent learning skills. Scientific recommendations are proposed regarding pedagogical requirements for teachers and the effective use of observation and analytical methods to improve educational outcomes.

Key words: primary education system, cognitive activity, attention, perception, imagination, thinking, observation and analysis, management theory, learning motivation, pedagogical activity.

Аннотация: В данной статье проанализированы психолого-педагогические факторы формирования устойчивого интереса к учебным предметам и эффективного развития познавательной деятельности учащихся начальных классов. В ходе исследования с научной точки зрения освещены возрастные и индивидуальные особенности школьников, а также специфика развития внимания, восприятия, воображения и логического мышления. Кроме того, рассмотрены инновационный подход учителя в современной системе образования, его мастерство управления учебным процессом и роль в развитии навыков самостоятельного приобретения знаний у учащихся. В статье разработаны научно обоснованные рекомендации по педагогическим требованиям к деятельности учителя и использованию методов наблюдения и анализа для повышения эффективности обучения.

Ключевые слова: система начального образования, познавательная деятельность, внимание, восприятие, воображение, мышление, наблюдение и анализ, теория управления, учебная мотивация, педагогическая деятельность.

KIRISH

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri barcha o'quvchilarda bilish faoliyatini shakllantirishdan iborat. Boshlang'ich ta'lim jarayoni ta'lim-tarbiya tizimining dastlabki bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. Inson hayotining serunum davri bo'lgan boshlang'ich sinfdan xotiraning kuchi nihoyatda o'tkir, bilim o'rganishga ishtiyoq juda katta bo'ladi.

Ishning samaradorligi ko'p jihatdan o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etishda ko'rinadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ba'zi boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quv jarayonini ilmiy va metodik jihatdan boshqarishga e'tibor bermasdan, shablon usulda rejada ko'rsatilgan mavzuni o'tib berish bilan cheklanib qoladilar.

Darsning borishida bolaning o'quv faoliyati qanday pog'onada ekanligi, bilish jarayoni qanday davom etayotgani, unda vujudga kelgan muammolarni qanday bartaraf etish zarurligi to'g'risida bosh qotirib ham o'tirmaydilar.

Bu holat bolaning bilishga bo'lgan intilishlarini susaytiradi, izlanish, diqqat, fikr yuritish kabi faoliyatlarining murg'ak holatda qolib ketishiga sabab bo'ladi.

Shu sababli o'qituvchi bilimlar, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayonini boshqarishda erkinlikka ega bo'lishi, bu imkoniyatdan bilib olish zaruriyati sifatida foydalanishi lozim.

Boshqacha qilib aytganda, o'qituvchi o'zlashtirish jarayoni qonuniyatlarini qanchalik yaxshi bilsa, u jarayonni boshqarish yo'llarini tushungan holda ishonch bilan tanlaydi va amalda undan maqsadga muvofiq foydalanadi. Bunda o'qituvchi qachon va qayerda vaziyatni o'zgartirish mumkinligini yoki qayerda zaruriyat qonunlariga albatta e'tibor qilish kerakligini bilib oladi.

Masalan, o'qituvchi birinchi sinfda yangi bilish amalini kiritishda uni tashqi moddiylashgan shaklda ko'rsatadi. Materiallarning aniq shaklini o'qituvchi erkinlik bilan tanlay oladi^[1, 2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Agar o'qituvchi o'zlashtirish qonuniyatlariga amal qilmasa, u holda o'z qo'ygan maqsadiga erisha olmaydi, o'zlashtirish jarayonini samarali boshqarish ham yuzaga kelmaydi. A.A. Leontyevning fikricha, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirish va uni maqsadli boshqarish ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir.

Olim o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayoni ularning individual xususiyatlari, motivatsiyasi hamda bilish faoliyatining dastlabki darajasini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozimligini ta'kidlaydi.

Muallifning qayd etishicha, o'qituvchi o'zlashtirish jarayoni qonuniyatlarini chuqur bilishi, teskari aloqani yo'lga qo'yishi va o'quv faoliyatini bosqichma-bosqich boshqarishi orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, izlanish va bilishga qiziqishni rivojlantirishi mumkin. Shuningdek, ta'lim jarayonida salbiy rag'batlantirishdan ko'ra, o'quvchilarning ichki motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash va qulay pedagogik muhit yaratish bilish faoliyatining muvaffaqiyatli shakllanishiga xizmat qilishi alohida ta'kidlanadi.

Tabiiyki, har bir o'qituvchi o'quv jarayonining qo'yilgan maqsadga erishuvidan manfaatdordir. Shu bilan birgalikda, o'quv jarayonini samarali boshqarishni ta'minlovchi talablarni albatta bilmogi lozim. Bunda o'qituvchi o'zining kundalik amaliy faoliyatida ularni ongli va maqsadga muvofiq ravishda hisobga oladi. Boshqarishning umumiy nazariyasiga muvofiq quyidagi talablar tizimi bajarilsa, o'quv jarayonini samarali boshqarishga erishish mumkin bo'ladi:

1. Boshqarishning maqsadini ko'rsatish;
2. Boshqarilayotgan manbaning dastlabki holatini o'rnatish;
3. Jarayonning asosiy o'tish holatlarini hisobga olib, harakat dasturini aniqlash va joriy etish;
4. Boshqarish jarayonining holati haqida ma'lum xarakteristik tizim bo'yicha axborotlar olishni, ya'ni tizimda teskari aloqani ta'minlash;
5. Teskari aloqa natijasida olingan axborotlarni qayta ishlash;
6. Tartiblovchi ta'sirni yuzaga keltirish.

Bu talablar umumiy tavsifga ega bo'lib, ixtiyoriy jarayonni boshqarishga tegishlidir. Ularni aniq tatbiq etish boshqarilayotgan jarayonning mohiyatini aks ettiruvchi maxsus bilimlarga tayanishni talab qiladi. Biz qarayotgan jarayon – o'zlashtirish jarayoni hisoblanib, o'quvchilar bilish faoliyatlarining rivojlanishiga katta imkoniyatlar beradi.

Shu munosabat bilan ko'rsatib o'tish kerakki, o'qituvchi bilimlarni va boshqa bilish faoliyatlarini shakllantirish bo'yicha rejalashtirganda asos uchun dars emas, balki butun o'qitish davri (boshqarish davri)ni olishi kerak.

O'qitish davri deganda o'qituvchi va o'quvchining oldindan rejalashtirilgan bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha o'tkaziladigan zarur harakatlar to'plami tushuniladi^[3, 4].

Endi o'qituvchining yuqoridagi talablar asosida o'qitish davrini tashkil etish uchun nimalar qilishi kerakligiga to'xtab o'taylik.

Talablarning birinчисini bajarish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak bo'ladi:

- a) yangi materialni o'rganish uchun o'qituvchi masalalar tanlaydi, o'quvchilar esa ularni yechishda foydalanadilar;
- b) har bir masala o'z yechimi uchun aniq bilish harakatlari va ko'nikmalarini talab qiladi. Shundan keyin masalalar yordamida qaysi bilish harakatlarida bu bilimlardan foydalanish mumkinligi aniqlanadi;
- d) tanlangan bilish harakatlari va unga kiritilgan bilimlar qanday sifatlarga ega bo'lishini ko'rsatish kerak bo'ladi.



O'zlashtirish maqsadida berilgan masalalarni qarashdagi so'nggi qadam – o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyat qanday sifatlarga ega bo'lishini ko'rsatishdan iborat. Bu holda qaralayotgan bilish faoliyatlarining oxirgi holatiga qo'yilgan quyidagi talablarni ko'rsatish mumkin:

- a) u shakli jihatidan aqliy darajagacha yetkazilgan bo'lishi lozim;
- b) umumlashmasi bo'yicha mumkin bo'lgan barcha imkoniyatlarni jalb etgan bo'lishi, ya'ni maksimal umumlashgan bo'lishi lozim;
- d) faoliyatni yetarlicha tez bajarish va natijada avtomatlashtirishni ta'minlash, unda kiritilgan harakatlarni qisqartirishga erishish kerak.

O'quvchilarning bilish faoliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ba'zi masalalarni ko'rib chiqaylik.

1. Bilish faoliyatining dastlabki holati

Dastlab bilimlarni o'zlashtirish jarayonini boshqarishda har bir o'quvchi bilish faoliyatining dastlabki holatini (saviyasini) hisobga olish zarur.

Amalda hamma uchun bir xil bo'lgan o'zlashtirish jarayoni mavjud bo'lib, u o'quvchilarning birortasi uchun ham qulay emas va u "o'rta" o'quvchiga mo'ljallangan. Ammo bunday o'quvchi haqiqatda mavjud emas. Chunki "o'rta" deb ataluvchi o'quvchi ta'lim jarayonida o'zgarib, ilg'or o'quvchilar safiga o'tib ketishi tabiiydir.

O'quvchilar yangi materialni o'zlashtirishga turlicha tayyorgarlik bilan kirishar ekan, bunda o'qituvchi bolalardagi jo'shqinlik va g'ayratga albatta tayanishi kerak. Ammo bolalardagi shaxsiy xislatlarni e'tiborga olmasdan ilojimiz yo'q.

O'qitishda o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olmaslik ularda turli ko'rinishdagi qiyinchiliklarning paydo bo'lishiga olib keladi va qo'yilgan maqsadga erishishni qiyinlashtiradi.

O'quv jarayonini tashkil etishning odatdagi usuli bilan o'quv ishlarini shakllantirish ancha qiyin masala bo'lib, mavjud imkoniyatlarni izlash, ayniqsa, ta'lim berishning zamonaviy vositalaridan mukammal foydalanish orqali bu qiyinchiliklarni bartaraf etish mumkin.

2. O'quv faoliyatlarini shakllantirish yo'llari

O'qituvchilar faoliyatini kuzatib shuni bildikki, muvaffaqiyatli o'qitish uchun zarur sharoitlar yaratish ishiga har doim ham e'tibor berilmaydi. Ko'pchilik o'qituvchilar tushunib yetmasdan, bola maktabga keldimi, u o'qituvchi aytgan barcha ishlarni qilishi kerak, degan xulosaga keladi.

Shunday o'qituvchilar ham uchraydiki, ular bolalardagi salbiy hayajonga tayanadilar. Bunday hollarda o'quvchi o'zini turli ko'ngilsizliklardan, masalan, o'qituvchisining yoki ota-onasining jazolashidan, yomon baho olishdan va boshqa holatlardan chetga olishga harakat qiladi. Natijada o'quvchida asta-sekin maktab va o'qituvchi oldida qo'rquv shakllana boshlaydi. O'quv ishlari xursandchilik keltirmasligini bilgan bola itoat etishga urinadi. Bola uchun maktabga bo'lgan odatlardan voz kechish ancha qiyin kechadi.

O'quvchini tushunish uchun uning o'rniga o'zimizni qo'yib ko'rishimiz kerak bo'ladi. Masalan, o'zimizni har kuni qoidaga ko'ra to'yib uxlamagan, qish kunlari ertalab qorong'ida turib maktabga boradigan o'quvchi deb tasavvur qilaylik.

Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining asosiy vazifasi "bolaning yuragini ochish", qalbiga kira bilish, ularda yangi materialni o'zlashtirishga xohish uyg'otish va uning ustida ishlashga o'rgatishdan iborat.

Hatto "eng qobiliyatli insonning boshi ham yaxshi ta'limsiz hech narsa emas", degan gapda jon bor. Biroq insonga shunday ta'limni ta'minlash uchun uni yaxshi o'qitish, bu kabi o'ta muhim pedagogik jarayonni to'g'ri amalga oshirish kerak ^[5,6].

O'quvchilarning ta'lim jarayonida rivojlanishi to'g'risida to'xtalar ekan, amerikalik psixolog Dj. Bruner shunday yozadi: "Biz fanlarni dunyoga kichik jonli kutubxonalarni keltirish uchun emas, balki o'quvchining o'zini matematik fikrlashga, muammolarni tarixchi misolida o'rganishga, bilim olishda faol ishtirok etishga o'rgatish uchun o'qitamiz. Bilish – bu jarayon, mahsul emas".

Ma'lumki, bilish faoliyatining subyekti o'quvchi sanaladi. Shu bois ijtimoiy-pedagogik asoslarga ega bo'lgan ta'lim markazida uning shaxsi, ongi, o'rganilayotgan olamga hamda bilish faoliyatidagi hamkorlariga – o'quvchilar va uning ta'lim olishini tashkil etuvchi hamda yo'naltiruvchi o'qituvchilarga munosabati yotadi.

Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, Uyg'onish davri Sharq mutafakkirlari ta'lim jarayoni, o'qitish va ta'lim berishda o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasidagi munosabat masalasiga alohida e'tibor qaratganlar.

Jumladan, Ibn Sino ta'lim jarayoni haqida gapirar ekan, ta'limda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berish zarurligini ta'kidlaydi: bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'yimaslik; ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish; olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi; o'qitishda jamoa bo'lib

maktabda ta'lim berishga e'tibor qaratish; bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish; o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Beruniy esa o'quvchiga bilim berishda o'quvchini zeriktirmaslik, bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik, uzviylik va izchillikni ta'minlash, yangi mavzularni qiziqarli hamda ko'rgazmali tarzda bayon etish kerakligini uqtiradi.

Ushbu fikrlardan ma'lum bo'ladiki, ta'lim jarayoni o'qituvchining o'rgatuvchilik faoliyatini va o'quvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu o'rinda bu jarayonlarning tahliliga e'tibor qarataylik.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta'limda o'qituvchining boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarning boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomida bilish, texnologiya, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarini egallashni shart qilib qo'yadi.

Bularning barchasi o'qituvchining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni amalga oshirishida o'z aksini topmog'i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida o'qituvchi o'z o'quvchilariga qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rgatadi, o'quv faoliyatida ularni malaka va ko'nikmalar bilan qurollantiradi.

Shu bilan bir paytda u o'quvchilarda dunyoqarash va axloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarini shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O'qituvchining faoliyati o'quvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi.

Yanada aniq qilib aytganda, o'qituvchi butun o'quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda o'quvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi, o'quvchilarga qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta'lim jarayonini tashxis qiladi.

O'z navbatida, o'quvchilarning faoliyati o'quv jarayonida o'rganishga, bilim, malaka hamda ko'nikmalarni egallashga, o'zini jamiyatda foydali faoliyatga tayyorlashga yo'naltiriladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faoliyati ko'p qirrali yo'nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Ta'limda o'quvchilarning faoliyati haqida gap borganda, o'quvchining bilish faolligi tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi.

O'quvchining bilish faolligi uning bilish jarayonidagi intellektual mulohazasida, umumiy va alohida topshiriqlarni bajarishda namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar o'quvchining nafaqat yuqori darajadagi bilim olishini kafolatlaydi, balki uning hayotiy faoliyati, ya'ni o'quvchi shaxsining shakllanishi, amaliyotga va hayotga bo'lgan faol munosabati uchun ham xarakterlidir. Shu sababli bilish faolligini oshirish insonning faol hayotiy qarashlarini shakllantirish deb bema'lol aytish mumkin ^[7,8].

O'quvchining bilish faoliyatining yana bir farqli xususiyati uning kechish xarakteridir. O'quvchining bilish faoliyati maqsadi ham, mazmuni ham, usullari ham dasturga kiritilganligi bois o'quvchi jalb etiladigan ta'lim jarayoni turlicha kechishi, subyekt (o'quvchi) kuchi, faolligi va mustaqilligi turlicha sarf etilishi bilan tavsiflanadi. Ayrim hollarda uning jarayoni taqlidiy, reproduktiv, boshqalarida izlanishli, uchinchilarida esa ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Aynan faoliyat jarayonining kechish xakteri uning oxirgi natijasi – egallangan bilim, malaka va ko'nikmalar xarakteriga ta'sir etadi.

O'quvchining bilishi, xuddi yetuk ilmiy bilish yo'li kabi, haqiqatni fanlardagi faktlar va ilmiy kashfiyotlarni o'rganish, ularning tarixiy yo'lini o'zlashtirish yordamida anglash orqali kechadi. Insoniyatning umumlashtirilgan bilimlari tizimi ta'lim davomida o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi va ular ilmiy haqiqat tashuvchilariga aylanadilar.

Insonning asl ijtimoiy mulki sifatida faoliyatining muhim belgisi faoliyat subyekting atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri hamda ma'lum boyliklar yaratuvchi faoliyatning qayta yaratuvchi xarakteridir.

O'quvchilarning ta'lim muassasasidagi (maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji) bilish faoliyatining xususiyati shundaki, uning natijasi hamma vaqt ham moddiylashgan "mahsul"ga ega emas va o'quvchining o'zi uni hamma vaqt ham his etmaydi. Javobi uchun yomon baho olgan o'quvchining xafa bo'lib: "Men o'qidim, o'rgandim! Bu adolatdan emas", degan fikrni qat'iy takrorlashi bejiz emas.

TAHLIL VA NATIJALAR

Faoliyat maqsadlari, uning maqsadli farazlari ta'limning uzoq muddatli jarayonini belgilaydi, uning ijtimoiy yo'nalganligini obyektiv ifodalaydi va pirovard natijalarini belgilab beradi. Shu bilan birga, isbotlanganki, subyektiv tarzda bu murakkab va o'quvchining tajribasidan uzoq bo'lgan maqsadlar hamma vaqt ham anglab yetilmaydi va o'quvchining o'zi faoliyat subyekti sifatida maqsadlarni bevosita tashuvchi bo'la olmaydi. O'qishning ijtimoiy yo'nalganligi o'quvchining faoliyati bilan belgilanadi, o'quvchi qanchalik yosh bo'lsa, bunday belgilanish darajasi shunchalik yuqori bo'ladi ^[9,10].



Bu jarayonni bilish bosqichlaridan iborat bo'lgan tarkibiy qismlarga (yoki bo'g'inlarga) ajratish mumkin. O'quvchi bilmaslikdan bilishga qarab, to'la va mukammal bo'lmagan bilimdan to'la va mukammal bilimga o'tishi lozim.

O'qitish jarayoni to'rtta asosiy bo'g'indan tashkil topgan:

- o'zlashtirilishi lozim bo'lgan ma'lumotni idrok qilish;
- uni fahmlab olish, tushunchalarning hosil bo'lishi;
- bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi;
- hosil qilingan ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash.

Bu bo'g'inlar o'quvchilarning ma'lum bir yo'nalishdagi bilish faoliyati bilan bog'langan bo'lib, u o'qituvchining boshqaruvchilik qobiliyatini taqozo etadi.

O'rganilayotgan ma'lumotni idrok etish. Bu bo'g'inning vazifasi – o'rganilayotgan obyekt haqida tasavvur hosil qilish. Tasavvurning hosil bo'lishi esa bilish vazifasining to'g'ri qo'yilishini talab qiladi. Ya'ni, o'quvchi nimani bilishi, nima uchun bilishi va qay tariqa bilib olishi lozimligini anglab olishi kerak. Bilish vazifalarini qo'yish bilan bir vaqtda o'quvchida bilishga bo'lgan qiziqish va ehtiyoj hosil qilinadi.

Bilishga qiziqish o'qishning eng muhim va eng qimmatli motivi sifatida bolaning maktabga, darslarga va o'z bilish faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishga ko'maklashadi.

O'quvchining bilishga qiziqishi motiv sifatida rivojlanishning uzoq yo'lga ega bo'lishi mumkin: ayrim o'quv harakatlari ta'sirchisidan tortib, butun faoliyatning ustuvor motivigacha. Hatto o'qishning yetakchi motivlaridan biriga aylanib, qiziqish shaxsning ma'naviy boyishiga ko'maklashuvchi umumiy yo'nalganligining muhim qismiga aylanishi mumkin.

Har qanday motiv singari bilishga qiziqish ham ajralgan holda rivojlanmaydi. Uning shakllanishi boshqa motivlar bilan birgalikda kechadi, qiziqish ular bilan boyiydi va ularga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bilishga qiziqishning ijtimoiy motivlar bilan o'zaro aloqasi jiddiy bo'lib, ular orasida o'qituvchi va o'quvchilar bilan muloqot alohida rol o'ynaydi. Ijtimoiy motivlar keng, uzoqlashgan va istiqbolli xarakterga ega bo'lib, ularning lisoniy ifodasi boshlang'ich sinflardayoq paydo bo'ladi ("ma'lumotli bo'lishni istayman").

Axloqiy motivlar juda muhim guruh hisoblanadi. Ularda shaxs shakllanishining jiddiy jihatlari, avvalo, uning odamlarga, faoliyatga, o'zining jamiyatdagi va jamoadagi o'rniga nisbatan axloqiy munosabatlari ifodasini topadi.

Muloqot motivlari yana bir muhim guruh bo'lib, o'quvchilarni o'qishga real undaydi hamda umuman maktabga ijobiy munosabat zamirida yotadi.

O'quv motivlari sof shaxsiy tuzilma bo'lsa-da, ular predmetlar dunyosidan boshlanadi va shunchaki hosil bo'lib qolmaydi.

Bilish motivlari esa tobora xarakterli guruh sanaladi, zero ular bilish va o'quv predmetiga bevosita munosabatni ifodalaydi. Bunda bilishga qiziqish va ehtiyojlar alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchiga "yangi narsani bilish", "o'zining bilimda ilgariylashini ko'rish", "ilmga sho'ng'ish", o'zi qiziqqan fanning nazariy asoslarini tushunish juda qiziq bo'ladi.

Ta'limning ushbu motivlarining real ahamiyatini ortiqcha baholash qiyin, chunki aynan ular o'quvchining o'zini o'qish uchun "kashf etadi". Bilishga qiziqish o'quvchining faolligi va ta'limdagi mustaqilligi asosida yotadi, maktabga bo'lgan muhabbatni shakllantiradi.

Bilishga qiziqish rivojlanishning yanada yuqori bosqichida shaxsning barqaror qirradi va sifati bo'lib, ko'pincha bilish faoliyatiga izchil intilish bilan xarakterlanadi. Bunda, ayniqsa, o'quv material mazmunidan kelib chiqadigan rag'bat va barqarorlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'afforova T.G., Nurullayeva Sh.K. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi: O'quv qo'llanma. - Toshkent: Tafakkur, 2019. - 280 b.
2. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent: Iste'dod, 2017. - 320 b.
3. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - Toshkent: Fan, 2006. - 260 b.
4. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M. Pedagogika: Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. - 480 b.
5. Sharipova D., G'ulomov P. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018. - 240 b.
6. Suyarov K., Qodirova M. Tabiiy fanlar (2-sinf): Darslik. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. - 128 b.
7. Suyarov K., Qodirova M. Tabiiy fanlar (3-sinf): Darslik. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. - 144 b.
8. Suyarov K., Qodirova M. Tabiiy fanlar (4-sinf): Darslik. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2023. - 160 b.
9. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent: TDPU, 2006. - 192 b.
10. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 2004. - 180 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.